

O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI “OT” KOMPONENTLI MAQOLLARDA RANG-TUS BILDIRUVCHI LEKSEMALAR

Bozorova Sabohat Ramazonovna,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta
o‘qituvchisi

Annotatsiya. Til insonlarning bilim va tajribalarini keyingi avlodlarga yetkazuvchi muhim vositadir. Tilning lug‘at boyligi, xalqning madaniyati, dunyoqarashi, asriy tajribalari, ijtimoiy hukmlari, ma‘naviy qadriyatlarini maqollarda ham yorqin aks etadi. Turkiy tillarda jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hayvonlar nomlari asosida tashkil topgan maqollar juda ko‘p. Maqollarda eng ko‘p uchraydigan hayvon nomi ot hisoblanadi. Zoonim komponentli barcha maqollarda bo‘lgani kabi, “ot” komponentli maqollarda ham insonlarga berilmoqchi bo‘lgan nasihat, yetkazilmoqchi bo‘lgan fikr o‘z ma‘nosida yoki ko‘chma ma‘noda ifoda etiladi. Ana shunday maqollarda rang bildiruvchi so‘zlar vositasida fikr yanada ta’sirchan shaklda ifoda etiladi. Turkiy tillar rang-tus bildiruvchi so‘zlarga juda boyligi bilan ajralib turadi. Turkiy tillarda otlarning rang-tusini bildiruvchi so‘zlarning hayratlanarli darajada ko‘pligi e’tiborni tortadi. Bu holat turkiy xalqlarning, asosan, ovchilik, chorvachilik, hunarmandlik, harbiy faoliyat bilan shug‘ullangani, ular hayotida hayvonlarning muhim o‘rin tutgani bilan izohlanadi. Ayni paytda til egalarining teran tafakkuri, yuksak badiiy zakovatidan ham darak beradi. Tadqiqotimizda otlarning rang-tusini bildiruvchi so‘zlar uchraydigan maqollar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek maqollari, turk maqollari, ot, komponent, rang-tus.

Аннотация. Язык является важным средством передачи знаний и опыта людей следующему поколению. Лексическое богатство языка, культура народа, его мировоззрение, вековой опыт, социальные суждения, духовные ценности ярко отражаются в пословицах. В тюркских языках существует множество пословиц, составленных на основе названий животных, которые играют важную роль в культурной и социальной жизни общества. Чаще всего в пословицах встречается название животного “лошадь”. Во всех пословицах с зоонимными компонентами, в том числе и в пословицах с компонентом “лошадь”, совет, который хотят передать людям, выражен в прямом или переносном смысле. В таких пословицах мысли выражены более выразительно с помощью слов, обозначающих цвет. Тюркские языки отличаются богатством слов, обозначающих цвет. Привлекает внимание огромное количество слов,

обозначающих масти лошадей в тюркских языках. Это объясняется тем, что тюркские народы в основном занимались охотой, скотоводством, ремеслом, военной деятельностью, и животные играли важную роль в их жизни. В то же время это свидетельствует о глубоком мышлении и высоком художественном интеллекте носителей языка. В нашем исследовании рассматриваются пословицы, в которых встречаются слова, обозначающие масти лошадей.

Ключевые слова: узбекские пословицы, турецкие пословицы, лошадь, компонент, масть.

Abstract. Language is an essential tool for transmitting human knowledge and experience to future generations. The richness of a language's vocabulary, the culture of its people, their worldview, centuries-old experiences, social judgments, and spiritual values are vividly reflected in proverbs. In Turkic languages, there are many proverbs based on the names of animals, which play a significant role in the cultural and social life of society. The most frequently mentioned animal in these proverbs is the horse. As with all proverbs containing zoonym components, proverbs with the component "horse" convey advice and ideas either in their literal or figurative meanings. In such proverbs, thoughts are expressed more vividly through the use of color-indicating words. Turkic languages are distinguished by their richness in color-indicating words. The remarkable abundance of words denoting the colors of horses in Turkic languages draws attention. This phenomenon is explained by the fact that Turkic peoples primarily engaged in hunting, animal husbandry, craftsmanship, and military activities, and animals played a crucial role in their lives. At the same time, it also reflects the deep thinking and high artistic intellect of the language speakers. Our research focuses on proverbs that feature words denoting the colors of horses.

Keywords: Uzbek proverbs, Turkish proverbs, horse, component, color.

Maqollarda insonlarning badiiy tafakkuri, boy ma'naviyati, hayot tarzi, asriy tajribalari, tavsiya va hukmlari aks etadi. Turkiy xalqlar moddiy hayoti va madaniyatining asosiy tarmog'i bo'lgan chorvachilikka aloqador tushunchalar ularning maqollarida ham aks etgan. Turkiylar hayotida ot muhim o'rin egallaydi. "Turkiy tilining eng qadimgi matnlaridan hozirga qadar bo'lgan davrdagi so'z boyligi tadqiq etiladigan bo'lsa, eng ko'p so'z, ibora va maqolning "ot" tushunchasi bilan bog'liqligi ko'riladi" (Aksan, 2011:206). Maqollarda otlarning rang-tusini ifoda etuvchi so'zlarning aksariyatini uchratish mumkin.

Otlarning parvarishi bilan shug'ullangan kishilar qadimdan otlarning tabiati va rangi o'rtasida bog'liqlik borligiga ishongan. *İyi atta kötü renk olmaz* (Yaxshi otda yomon rang bo'lmas) maqoli ana shu ishonchning yaqqol ifodasidir. Turkiy tillarda

rang-tus bildiruvchi soʻzlar boʻyicha keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilgan (Çağatay,1978; Sertkaya,1995, Sağol,1995; Emine Gürsoy-Naskali,1995, 2017; Kaymaz,1997; Gözaydın, 2003; Küçük, 2009; Toker, 2009; Yılmaz, Ertuğrul, 2011; Bayraktar, 2011; Yılmaz, Ertuğrul, 2011; Küçük, 2012; Eminoğlu, 2013, 2014, Öztürk, 2015; Hirik, 2016; Yardımcı, 2019, Karakulak, N., Yılmaz, 2023.)

Gulden Sagʻolning tadqiqotida otlarning rang-tusini ifodalovchi *ak, akça>agca, al, ala, alaça, az, ak az, beyaz/ala beyaz, boz, ak boz, temir boz, çal,çapar, çil, çilgü, egir/eygir, kara, kır, demir kır, kızgıl, kızıl, sızilsağı,kongur, kök, kökiş, kuba, kula, kızıl kula, kuru kula, kül levünlü/kara kül levünlü, or, sarıg, sıçan tüli, sis, taz, tıg, torug, hurmayı torı, yagız, az yagız, kara yagız, yaşıl, yegren* singari 44 soʻz tahlil qilingan(Sağol, 1995: 126-145).

Turk olimlari Oʻgel va Kafali otlarning rang-tusini bildiruvchi soʻzlar yozma va ogʻzaki madaniyat nuqtayi nazaridan ham ahamiyatli ekanini taʻkidlaydi. Masalan, *kır* soʻzi bilan birga ishlatiladigan *ala-kır, bakla-kır, boz-kır, demir-kır, gök-kır* ifodalari ot tusidagi oqlik bilan ranglarning qorishishini aks ettirish asosida turli maʼnolarni ham bildiradi. *Toʻriq* maʼnosini bildiruvchi *doru* soʻzi bilan birga qoʻllanadigan *yağız doru, açık doru, hurma doru, kızıl doru, kızıl boz, kızıl şab* haqida ham shunday deyish mumkin.

Otning turkiy xalqlar hayotida tutgan oʻrni haqidagi maʼlumotlar qadimgi yozma manbalarda ham qayd etilgan. Otlarga qahramonlik unvonini ham bergan Koʻkturk hukmdorlari mingan otlarga rangiga koʻra nom berilgan. *Bayırku* (oq ot), *Başgu* (boʻz ot), *Alp-Şalçı* (oq ot), *Ögsiz* (oq ot), *Kedimlig* (toʻriq ot), *Yağız* (qora ot) (Yılmaz, 2003:128-129) Kultegin janglarda 8 marotaba oq; 3 marotaba boʻz; 2 marotaba qoʻngʻir; 1 marotaba toʻriq ot bilan ishtirok etadi (Nerimanoğlu, 1996:69).

Kultegin ham muqaddaslik, martaba, omad ramzi boʻlgan oq va boʻz rangli otlarga minadi: “*İkinti İşbara Yamtar boz atıg binip tegdi*” (Ikkinchi marotaba Ishbara Yamtarning boʻz otiga minib hujum qildi) (Ergin, 2007:20). “*Kül Tiğın başgu boz at binip tegdi*” (Kultegin peshonasi oq boʻz otiga minib hujum qildi) (Ergin, 2007:22). “*Alp-şalçı ak atın binip tegmiş*” (Alp Shalchi nomli oq otiga minib hujum qildi) (Sağol, 1995:127, Aalto, 2000:456). Kultegin 3-hujumni Yedinsilig Beyning toʻriq oti – Kedimligga minib amalga oshiradi. (Aalto, 2000:456). Keyin oq, qora otlar bilan hujumni davom ettiradi. Bitiktoshda *ak aygır* va *ak at* soʻz birikmalari oʻrniga *ak* sifatining ishlatilganini ham koʻrish mumkin. (Sağol, 1995: 127).

Xun hukmdori Mete otliq qoʻshinini turli tUSDagi otlar bilan jangga yoʻllaydi. Toʻriq va qir otlilarni sharqqa, qizil otlilarni janubga, oq otlilarni gʻarbga, qora otlilarni esa

shimolga yuboradi. Ko‘kturk bitiktoshlarida eng ko‘p uchraydigan ot rangi oqdir. “Irqbitig”da oq otning diniy mohiyatga egaligi ko‘rsatiladi: “Oq ot dushmanini uch narsa bilan ho‘llab, bir joyda yolg‘iz o‘zi duo qilib o‘tirishga jo‘natdi. Mazkur moniylik qo‘lyozmasidagi oq ot bilan uyg‘urlar oppoq ot sifatida tasvirlagan Kanthaka o‘rtasidagi bog‘likni sezish qiyin emas. Qurbonlik uchun ham oq otlar tanlanar edi. Hurmatga sazovor insonlar oq otga minardi. Kultegin ham, ko‘pincha, oq otda yurardi” (Esin, 1995:60).

Ko‘kturk aslzodalari minadigan otlar ichida bo‘z (kulrang) otlar ajralib turardi. O‘rta asrlar va undan keyingi davrda *kır, ablak, kaşka, tepel, humâyî, semend* rangli otlar ko‘proq qadrlanlanganligi manbalarda qayd etilgan. Bu ranglarning barchasi ola rang guruhini tashkil etgan.

Eski turklarda ochiq rangli, oq va bo‘z rangdagi uch yashar otlar Tangriga qurbon qilinardi. Qurbonlik uchun, odatda, oq-bo‘z yoki peshonasida qashqasi bo‘lgan otlar tanlanardi. Xoqonlar, asosan, oq yoki bo‘z rangli otlarda yurardi (İnan 1987: 133, 136, 141, 145; Bayat 1993: 157).

Eski Turfon ot haykalchalari ba‘zan yaltiroq ko‘k rangga bo‘yalardi. Xuddi shunday holat saljuqiylar va usmoniylar miniatyuralaridagi ot tasvirlarida ham kuzatiladi. Shunga bog‘liq ravishda, matnlarda, ko‘pincha, ko‘k ot haqida so‘z yuritilishi e‘tiborni tortadi (Og‘uz dostonlari, b.14: *kök bidevî*; “Tuhfat-ul muluk”, b.57a: *kök at*). Sharqiy turkistonliklar kulrang ola otni *kök alaca* deb ataydi. Miniatyuralarda yashil rangli otlarni ham ko‘rish mumkin. “Tuhfat-ul muluk”ning muallifi bu ot tusini baliq rangiga o‘xshatadi (Esin, 1995:60).

Qizil(al) ot Og‘uz dostonlarida oltin tog‘ bilan aloqadorlikda tasvirlanadi. Og‘uz beklarining xoni Qozon shunday otga minar edi (Esin, 1995:60).

Og‘uz dostonlarida ochiq rangli otlar yuqori martabali kishilar uchun ekanligiga ishora qilinadi. Buyuk Bayindir Xon bo‘z otga minar edi. Manbalarda hazrat Xizr ham bo‘z ot bilan tasvirlanadi. Bayindir Xonning qizi, olovqalb kurashchi Uzun Burla Xotunning qora otda yurgani qayd qilinadi. Oltoy an‘analariga ko‘ra, ochiq rangli otlar faqat erkak shomonlar xizmat qilishi mumkin bo‘lgan Osmon tangrisi Ulgenga qurbon qilinardi. Faqat ayol shomonlar xizmat qilishi mumkin bo‘lgan yerosti tangrisi Erlik qora otga minar edi (Esin, 1995:60).

Turk madaniyatida *qir* va *oq otlar* qahramonlik ramzi sanaladi. Bo‘z rang esa, asosan, ot va bo‘rilarga nisbat beriladi. Kulteginning Oqbo‘z oti bilan birga Xizrning Bo‘zoti, Go‘ro‘g‘lining G‘ir(Bo‘z)oti ham mashhur (Nerimanog‘lu, 1996: 73).

Turk olimi Salim Kuchuk turk tilida otlarning rang-tusini ifodalashda, asosan, turkiy so‘zlardan foydalanilishi, shuningdek, *abraş, aşkar* kabi arabcha; *nişān, semend,*

şikāl, tubçak singari forscha o‘zlashmalar ham ishlatilishini, hozirgi turkiy tillarda *börte, ciren, çıpar, çilan, demiri, hurmayı, konur, kökiş, kuba, kula, tarlan* kabi rang-tus bildiruvchi so‘zlar ma’lum fonetik farqlar bilan qo‘llanishini qayd etadi. Olim tomonidan tahlil qilingan leksik birliklarning 56 tasi sifat so‘z birikmasi ekani va *ak, boz, gök, kara, kızıl* sifatlari ishtirokida hosil qilinishi; otli so‘z birikmalari soni 9ta bo‘lib, *bal, demir, hurma, kestane, pekmez, sıçan, turna* so‘zlaridan foydalangan holda otlarning rang-tusini bildirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”ida otlarning rang-tusini bildiruvchi 17ta; ot tanasidagi qashqalarning shakli va rangini ifodalovchi 10ta so‘z borligi, hozirgi turk tili lug‘atlarida otlarning rang-tusini bildiruvchi 51ta; ot tanasidagi qashqalarning shakli va rangini ifodalovchi 38 ta shakl mavjudligi ma’lum qilinadi.

Turkiylar otlarining dovrug‘i Xitoydan Hindistonga qadar yoyilgan edi. XII asrda Harichandranning sinonimlar lug‘atida *kula, kök, koñur, sarı/sarığ, ala, bor/boz, doru/doruğ, örüñ/ürüñ, soro/suru* so‘zlari qayd etilgan. (Sertkaya, 1995:29)

Otlarning rang-tusi, xususiyatlari bilan bog‘liq bir qancha qarashlar shakllangan. Tuki, tili, ko‘zlari ochiq rangda; ko‘z qorachig‘i, labi va tirnoqlari to‘q rangda bo‘lgan otlar xosiyatli hisoblangan (Esin, 1995:77). Shuningdek, qora otning ham omad keltirishiga ishonilgan. Qo‘ng‘ir ot shiddat, temirqir ot uchqurlik, qizil ot esa murod ramziga aylangan. Bu qarashlarning ayrimlari hamon yashamoqda.

“Otlarning rang-tusini bildiruvchi leksemalarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) faqat otlarning rang-tusini ifodalash uchun ishlatiladigan leksemalar; 2) rang bildiruvchi, shu jumladan, otlarning rang-tusini ham ifodalashga xizmat qiluvchi leksemalar. Birinchi guruhga quyidagi so‘zlarni kiritish mumkin: *jiyron* “qizg‘ish tusli”; *saman* “sariq”; *to‘riq* “qora bilan qizilga birdek o‘xshaydigan”; *chavkar* “ola”; *burul* “*olachipor*” va hokazo. Ikkinchi guruhga esa quyidagi so‘zlar mansub: *ko‘k* “zangori, ko‘k”; *ola* “ola, xol-xol”; *bo‘z* “kulrang”; *qo‘ng‘ir* “zangori va oq oralig‘idagi rang, bo‘z”; *oq*; *kulrang, qora, chipor* “ola-bula” singari. *Saman, jiyron, to‘riq, burul* kabi leksemalar faqat otning rang-tusini bildiradi va shunday tusli otlarga nisbatan ishlatiladi...” (Mahmudov, 1995:159).

O‘zbek tilida otlarning rang-tusi *jiyron, jiyronqashqa, qora, abrash, saman, samanto‘riq, to‘riq, ablaq, chavkar, burul, chag‘ir, ola, qo‘ng‘ir, bo‘z, chipor* singari leksemalar vositasida ifodalanadi. O‘zbek va turk tillaridagi otlarning rang-tusini bildiruvchi barcha leksemalar ham maqollarda uchramaydi. Kundalik hayotda ko‘proq ishlatiladigan, aytish va esda saqlash oson bo‘lgan, maqollarda alliteratsiyani yuzaga keltiradigan, bo‘g‘inlar soniga mos bo‘lganlarigina tanlanadi.

“Ot” komponentli o‘zbek va turk maqollarida rang-tus bildiruvchi quyidagi leksemalar uchraydi:

Qir/ Kır

Kır atın yanında duran ya huyundan ya suyundan(tüyünden); Atın kırır, erkeğin burnu; Kır atta hüner çok, amma dizde derman yok; Hana kır atlı da, kahpe avratlı da gelir; Kır atla gezen ya huyuna çeker, ya suyuna; Hergelede kır kırsrağın lafı mı olur; Köyünde bulamaz güdük eşeği, askerde beğenmez kır atı başçavuş; Genç ağaya (beye) kır (dinç) ata hizmet etmek güçtür; Kırat tüyünü değiştirir, huyunu değiştirmez; Kır atın yanına gün yavaş yavaş doğarmış; Koca kır at, yarım kırat.

Bo‘z/boz

Kishanli ot – o‘z oting, Tushovli ot – bo‘z oting; Yilqining bo‘zi yaxshi; Ot yaxshisi bo‘z bo‘lur, Er yaxshisi toz bo‘lur; Qari bo‘z qartayganda yo‘rg‘a chiqaradi; Boz ata, avrada oğlana kulluk edenin yüzü ağarmaz; Boz atın yanında duran ya huyundan ya suyundan(tüyünden).

Ola/ala/alaca

Otning yomoni – ola, Xotinning yomoni – balo; Otdan ola ham tug‘ar, qora ham; Ola yilqi yo‘qolmaydi, Haromzoda o‘ng‘almaydi; Ola ot – balo ot; Yoksul ala ata binse selam almaz.

To‘riq/doru

To‘riq ko‘z chiqarar; Atın dorusunu al kızın delisini; Atın dorusu, yiğidin delisi; To‘riq otga temir taqa; Otning to‘rig‘i yaxshi, Yuganning o‘rig‘i; Er kara gerek, at doru gerek.

Kula

Rengi kula, sat bir pula; At alırsan kula, avrat alırsan deli al; Atalara “At kaldı” demişler “Kula idi” demiş; “At uçu “demişler “Doru idi” demiş.

Oq/ak

Oq qoptol ot Otboshi o‘tin o‘tlamas; Ak at ile cahil ağaya kulluk çetindir; Hadım ile ak ata kulluk eden kimsenin yüzü ak olmaz.

Qizil/al

Alma alı, sat yağız, bin doruya, besle kırır; Alma alı, satma kırır, ille doru, ille doru; yağızın da binde biri; Al at hem kapar, hem teper.

Qora/yağız

Kaşağı al, ahıra gir, yağız at bellidir; Çarşaf bezden, at yağızdan olur.

Chag‘ir/çakır

Ot chag‘iri – itga barobar, It chag‘iri – otga barobar; İt çakırı ata değer, at çakırı ite değmez.

Ko‘k

Ko'ngil yugurikmi, ko'k do'nan yugurikmi?

Sariq/sari

Alma sari, satma sari, kapındaysa tutma sari.

Abraş/abreş

Abraş at yüke dayanmaz; Abraş at yükçü olmaz.

Türk maqollarida otlarning rang-tusini ifodalovchi o'zlashma so'zlarning kam uchrashi mazkur tilning o'z leksik qatlamini himoya qila olgani, boshqa tillar, xususan, G'arb tillaridan so'z o'zlashtirilishini ma'lum darajada cheklaganini ko'rsatadi.

O'z ma'nosida va ko'chma ma'noda ishlatiluvchi "ot" komponentli maqollarda jamiyat hayoti va insoniy munosabatlar, ijtimoiy hukmlar, axloqiy mezonlar haqidagi muhim ma'lumotlar o'ziga xos tarzda ifoda etilgan. Bu maqollarda otning ijobiy va salbiy xususiyatlari misolida insonlarning xatti-harakatlari ta'sirchan shaklda tasvirlangani, inson tabiati va ruhiyatining nozik qirralari aks ettirilgani, nasihatlar berilgani, rang-tus bildiruvchi leksemalardan samarali foydalanilganini ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Aksan D. Türkçeye Yansıyan Türk Kültürü. – Ankara: Bilgi Yayınevi, 2011.

Aksoy Ö. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. – İstanbul:İnkılâp Kitabevi, 1988.

Aksoy Ö. Benzerlikleriyle Türk Dünyasında Atasözleri. – İstanbul: Kültür Konseyi, 2021.

Aksu B., Akalın Ş., Toparlı R. Türk Atasözleri Sözlüğü. – Ankara: TDK Yayınları, 2022.

Akkuş M. Atasözleri ve Deyimler Üzerine İncelemeler. – Ankara: Akçağ Yayınları, 2022.

Bayraktar N. Kavram ve Anlam Boyutunda Ak, Kırmızı ve Kızıl. International Journal of Central Asian Studies (Mustafa Canpolat Armağanı) 2005, 10(1): 145-165.

Bayraktar N. Kavram ve Anlam Boyutunda Türkçede Ak ve Beyaz. Dilbilim, Dil Öğretimi ve Çeviri Bilim Yazıları I-II. Haz. Cemal Yıldız ve Latif Beyreli. Ankara: Pegem-A Yay., 2006: 35-50.

Bayraktar N. Kavram ve Anlam Boyutunda Sarı ve Tonları. Erciyes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi (Prof. Dr. Tuncer Gülensoy Armağanı) 2006, 1 (20): 209-218.

Bayraktar N.Boz ve Kır Renk Adlarının Kavram, Anlam ve Biçim Boyutu Üzerine. International Journal of Central Asian Studies, 2007, 13: 101-121.

Esin E. Türk Sanatında At. Türk Kültüründe At ve Çağdaş Atçılık. Ed. Emine Gürsoy Naskali, İstanbul: Türkiye Jokey Kulübü, 1995.

Kafali M. Türk Kültüründe Renkler. Nevruz ve Renkler. Haz. Sadık Tural ve Elmas Kılıç. Ankara: AKM Yay., 1996, 49-54.

Kafesoğlu İ. Türk Millî Kültürü, Düzeltilmiş ve genişletilmiş 3. baskı, İstanbul, 1984.

Küçük M. Türkiye Türkçesi Ağzlarında At, At Donları ve Nişaneleri İle İlgili Adlandırmalar. Turkish Studies, International Periodical For the languages, Literature and History of Turkish or Turkic, Volume 7/4 Fall, 2012, s. 2287-2304.

Mahmudov N. Çağdaş Özbek Dilindeki Atçılık Terimleri. Türk Kültüründe At ve Çağdaş Atçılık. Ed. Emine Gürsoy Naskali, İstanbul: Türkiye Jokey Kulübü, 1995, s. 25-30.

Nerimanoğlu K. Türk Kültüründe Renkler. Nevruz ve Renkler. Haz. Sadık Tural ve Elmas Kılıç. Ankara: AKM Yay., 1996.

Sağol G. Tarihi Şivelerde At Donları. Türk Kültüründe At ve Çağdaş Atçılık. Ed. Emine Gürsoy Naskali, İstanbul: Türkiye Jokey Kulübü, 1995, s.126-145.

Sertkaya, O. F. Eski Türk Kültüründe At. Türk Kültüründe At ve Çağdaş Atçılık. (Ed. Naskali, E. G.). Resim Matbaacılık. İstanbul, 1995, 25-30.

Ögel B. Türk Kültür Tarihine Giriş. C. VI. Ankara: Kültür Bakanlığı Yay., 1991.

O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent: Sharq, 2019.

O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: Noshirlik yog‘dusi, 2019.